

TIL NAZARIYASI VA CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

UO‘K(UDC, УДК): 82-2:82-7

“QUTADG‘U BILIG”DA “TIL–BOSH” FRAZEOLOGIK MODELINI
VA LINGVOKULTUROLOGIYA MASALALARI⁶**Sidiqov Qosim Abilovich***Namangan davlat universiteti professori,**filologiya fanlari nomzodi,**Namangan, O‘zbekiston**E-mail: qosimjon1977@mail.ru***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada tadqiqoti Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asaridagi "til–bosh" somatik frazeologik modelini lingvokulturologik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada asarning tub mohiyatini tashkil etuvchi "qizil til – qora boshning yovi" konsepti asliyat, Q. Karimovning o‘zbekcha tabdili hamda Volter Mey va Robert Denkoﬀning inglizcha tarjimalari asosida o‘rganiladi. Tarjima jarayonida qo‘llanilgan kalkalash, idiomatik almashtirish, eksplikatsiya va amplifikatsiya kabi strategiyalar orqali ekvivalentlik darajasi baholanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Volter Mey ko‘proq funksional ekvivalentlikka intilib, ingliz o‘quvchisi uchun tushunarli badiiy ritm va qo‘shimcha jazo ssenariylarini (amplifikatsiya) matnga kiritgan. Robert Denkoﬀ esa asliyatning obrazli tuzilmasini va qadimgi turkiy madaniyat xususiyatlarini saqlashga, ya‘ni forenizatsiya tamoyiliga ustunlik bergan. Maqolada, shuningdek, G. Klausonning etimologik lug‘ati ma‘lumotlariga tayanib, baytlardagi "yeyur/yanur" kabi so‘zlarning ma‘no nozikliklari va ularning zamonaviy o‘zbek tilidagi talqini bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, "Qutadg‘u bilig" to‘rtliklarining nafaqat axloqiy o‘git, balki mukammal kompozitsion va semantik qurilishga ega ekanligi asoslanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Qutadg‘u bilig,
frazologik birlik,
somatic idiomatika,
metafora, tarjima
strategiyasi.

Received: December 17, 2025**Accepted:** December 19, 2025**Available online:**
February 25, 2026⁶ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sidiqov Q. “Qutadg‘u bilig”da “til–bosh” frazeologik modeli va lingvokulturologiya masalalari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 78-88.

**THE “TONGUE–HEAD” PHRASEOLOGICAL MODEL AND
ISSUES OF LINGUOCULTUROLOGY IN “QUTADGU BILIG”****Sidiqov Qosimjon Abilovich***Namangan State University**Candidate of Philological Sciences,**Professor**Namangan, Uzbekistan**E-mail: gosimjon1977@mail.ru*

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the somatic phraseological model "tongue-head" in Yusuf Khass Hajib's work "Kutadgu Bilig" from the perspectives of linguoculturology and translation studies. The study examines the concept "red tongue - enemy of the black head," which forms the core essence of the work, based on the original text, K. Karimov's Uzbek rendition, and English translations by Walter May and Robert Denkoff. The degree of equivalence is evaluated through translation strategies such as calquing, idiomatic substitution, explication, and amplification. Analysis reveals that Walter May, aiming for greater functional equivalence, incorporated artistic rhythm and additional punishment scenarios (amplification) into the text, making it more accessible to English readers. Robert Denkoff, however, prioritized preserving the original's figurative structure and features of ancient Turkic culture, adhering to the principle of foreignization. The article also proposes scholarly interpretations of the semantic nuances of words like "yeyur/yanur" in the verses and their modern Uzbek equivalents, drawing on G. Clauson's etymological dictionary. Furthermore, it substantiates that the quatrains of "Kutadgu Bilig" possess not only moral teachings but also a sophisticated compositional and semantic structure.

KEY WORDS

“Qutadg‘u bilig”,
phraseological unit,
somatic metaphor,
translation strategy,
equivalence.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ “ЯЗЫК–ГОЛОВА” И ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ “КУТАДГУ БИЛИГ”

Сидиқов Қосим Абилович

Наманганский государственный университет

кандидат филологических наук, профессор

Наманган, Узбекистан

E-mail: qosimjon1977@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ соматической фразеологической модели "язык-голова" в произведении Юсуфа Хас Хаджиба «Кутадгу билиг» («Благодатное знание») с лингвокультурологической и переводоведческой точек зрения. В статье на основе оригинала, узбекской версии К. Каримова и английских переводов Вальтера Мея и Роберта Данкоффа исследуется концепт "красный язык – враг чёрной головы", составляющий смысловую основу произведения. Степень эквивалентности оценивается посредством таких стратегий перевода, как калькирование, идиоматическая замена, экспликация и амплификация. Анализ показал, что Вальтер Мей, стремясь к большей функциональной эквивалентности, ввел в текст художественный ритм и дополнительные сценарии наказания (амплификация), понятные для англоязычного читателя. В свою очередь, Роберт Данкофф сделал выбор в пользу сохранения образной структуры оригинала и особенностей древнетюркской культуры, то есть руководствовался принципом форенизации. Также в статье, опираясь на данные этимологического словаря Дж. Клосона, выдвигаются научные предположения о тонких оттенках значений таких используемых в бейтах слов, как "еюр/янур", и особенностях их интерпретации в современном узбекском языке. Кроме того, обосновывается, что четверостишия «Кутадгу билиг» обладают не только нравоучительным содержанием, но и совершенной композиционной и семантической структурой.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

«Кутадгу билиг» («Благодатное знание»), фразеологизм, соматическая метафора, перевод, эквивалентность.

KIRISH

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” umumturkiy obida sifatida jahon turkiyshunoslarining e‘tiborini juda jiddiy tarzda tortib kelayotgani bejiz emas. Asar o‘zining teran mazmuni, yuksak falsafiy g‘oyasi, pandnomaga boy o‘g‘itlari hamda marjon shodasiga terilgan ifoda shakliga ega. Bu ma‘noda asarda muallif ko‘plab badiiy unsurlar qatorida frazeologik birliklar va boshqa stilistik vositalardan keng foydalanganki, ular asarning yuksak badiiy jilosi va strukturasi yuksakka olib chiqqan.

Yusuf Xos Hojib falsafasida “til – boshni saqlovchi (kestiruvchi)” konsepsiyasi asosiy g‘oyalar qatoriga kiradi. Asarning juda ko‘p o‘rinlarida muallif til va uning foyda hamda zararlari to‘g‘risida pandlar beradi. Undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerakligini takror va takror eslatib o‘tadi.

ASOSIY QISM

“Qutadg‘u bilig”ning didaktik poetikasida nutq madaniyati masalasi ko‘pincha somatik obrazlar (bosh, til) orqali ifoda etiladi. 952–953-baytlar “til-bosh” qarama-qarshiligi orqali “nazorat qilinmagan so‘z – ijtimoiy xavf” g‘oyasini aforizm darajasiga yetishiga xizmat qiladi” (Lakoff, George., 2003, 4).

Mazkur tadqiqotda tahlil materialini sifatida “til-bosh” frazeologik modelini o‘zida jamlagan to‘rtlikda qo‘llanilgan frazeologizmlar va ularning Q.Karimovning o‘zbekcha hamda Volter Mey, Robert Denkoﬂarning inglizcha talqinlari olindi. Mutarjimlar mahoratini qiyoslashda “frazeologik yadro” (qizil til; boshni yeyish; tilni tiyish), semantik yaqinlik va pragmatik ta‘sir, domestikatsiya-forenizatsiya darajasi hamda tarjimada qo‘shimcha (amplifikatsiya) va izohlash (eksplikas) holatlari mezon sifatida qo‘llanildi.

Asliyat:

Қара баш йағысы қызыл тил туруп

Нэчэ баш йэди бу тақы ма йэйур

Башыңны тиләсә тилиңни көдәз

Тилин тэкмә кундә башыңны йэйур (Q.Karimov, Q.Sidiqov., 2014, 73)

Q. Karimov tabdili:

*Qoraboshning yovi kizil tildir,
U qanchadan-qancha boshlarni yedi, yana ham yeydi.
Boshim omon bo'lsin desang, tilingni ehtiyot qil,
Tiling istagan bir kunda boshingni yeydi.*

Volter Mey tarjimasi:

*His hair may be dark, but his tongue is blood-red,
How often it swallows a thoughtless hot head!
If you need your head, hold your tongue, do not shout —
If not — they will cut your offending tongue out!*

Robert Denkoftarjimasi:

*The red tongue is black head's foe:
Many a head has it devoured.
Hold your tongue if you would keep your head;
Before the tongue the head's coward.*

Ko'rinadiki, asliyatda frazeologik yadro uch bo'g'in – "(1) "qara/qora bosh" (bosh = inson/sha'n), (2) "qizil til" (xavfli nutq, mojaroga sabab), (3) "bosh(ni) yeydi" (halokatga olib keladi)dan tashkil topgan. To'rtlikda bu yadro buyruq shaklida yakuniy xulosaga aylanadi: "tilingni ko'daz" — ya'ni tilingni nazorat qil".

To'rtlikdagi frazeologizmlar poetikasi 4 ta ustunda turadi:

1. Somatik metonimiya ("bosh" = inson/hayot),
2. Rangli metafora ("qizil til" = xavfli nutq),
3. Giperbola + personifikatsiya (til "yeydi", "dushman"),
4. Imperativ aforistika ("tilingni ko'daz / tilga tegma").

Natijada til odobi to'g'risidagi didaktik g'oya nafaqat o'quvchiga tushunarli, balki yuqori darajada esda qolarli va ta'sirchan shaklda beriladi. Aynan shu to'rtlikdagi frazeologizmlar badiiyatini yanada oshiradi va go'zallashtiradi.

"To'rtlikda insonning boshi, demakki, hayoti uchun xavfli unsure sifatida tilga urg'u beriladi va uning foydali jihatlari bilan birga zararli tomonlari ajoyib

aforistik uslubda namoyon etiladi. Garchi til va bosh bir tanada biri-biridan ajralmas qilib yaratilgan bo'lsa-da, ba'zan biri ikkinchisiga tahdid solishi mumkin. Bu shakldagi aforizm Yusuf Xos Hojibning kashfiyotidir". (Q.Sidiqov, 2014, 82)

Mazkur to'rtlikning frazeologik yadro va ma'no qatlamlariga e'tibor qaratsak.

1. "Qara bash – qora bosh" – somatik metonimiya vazifasini bajarib, "Bosh" bu yerda insonning oddiy anatomik a'zosi emas — insonning o'zi / joni / sha'ni / hayoti ma'nosida qo'llanilmoqda. Bu mutafakkir Yusuf Xos Hojibning badiiy mahoratidir. "Qara" komponenti turkiy tafakkurga asosan "oddiy odam", "foniy jon", "banda" kabi umumlashtiruvchi, hatto kamtarlik ma'nolarini namoyon etadi. Shu sabab "qara bash" — "inson (hayot)"ning inikosi bo'lib xizmat qiladi.

2. "Qizil til" – rangli metafora funksiyasini ifodalab, xavf-xatar mazmunini ifodalaydi. "Til" – nutq va so'z ramzi; "qizil" esa qon, mojaro, jazo assosiativlari bilan nutqning xavfli tabiatini ko'rsatib beradi. Bu yerda rangi "biologik realizm" emas, balki pragmatik ogohlantirish: beehtiyot so'z "qonli oqibat"ga yetaklashi mumkinligi anglashiladi. Shuning uchun "qizil til" konstruksiyasi poetik jihatdan ko'rish (rang) orqali eshitish (nutq)ni ta'sirchan qilib, sinestetik kuch paydo bo'ladi va bu o'z o'rnida, hislarning "aralashib ketishi" va o'quvchida tezroq hamda kuchliroq tasavvurlar paydo bo'lishini ta'minlaydi.

3. "Yag'i" + "bosh yeyur / bosh yedi" – frazeologik giperbola vazifasida kelib, "yag'i" (dushman) bilan "yeyish" fe'li birlashib, nutqning zararini bo'rtirma tarzida (jismoniy halokat obrazida) namoyish etadi va tilni "boshlarni yeyishi" ifodalanadi. Bu "boshni yemoq" tipidagi somatik frazeologizmning poetik ifodasi bo'lib, "boshga kulfat keltirmoq, halokatga sabab bo'lmoq" kabi mazmunni ifodalaydi. Bu yerda til personifikatsiyalanib, harakat qiluvchi, "yeyuvchi" subyektga aylanadi.

4. "Tilini kedaz / tilin tekma" – nutqni tiyish formulasi bo'lib, "kedaz" – "ko'z-quloq bo'l, saqla, nazorat qil" ma'nosida; "til" bilan birikkanda "so'zingni o'ylab gapir" degan axloqiy buyruq formulasi hosil bo'ladi.

Yuqoridagi frazeologizlarning tarjimada qayta yaratish masalalarini qiyosiy tahlil etish ham muhim masaladir. Mutarjimlar quyidagi tarjima variantlarini taqdim etadilar:

Asliyatda: қара баш, қизил тил, бош(ни) ейди, тилингни кўдэз

Q. Karimovda: *qora bosh , qizil til, bosh(ni) yeydi, tilini ehtiyot qil.*

V.Meyda: *his hair may be dark, tongue is blood-red, swallows a hot head, hold your tongue.*

R.Denkofda: *black head, red tongue, has it devoured, hold your tongue.*

Q.Karimov tabdilida anglashiladiki, asosiy yadro – “qizil til”, “boshni yeyish”i to‘liq saqlangan va bu qadimgi turkiy va hozirgi o‘zbek tilining oilaviy qarindoshligi bilan ham bog‘liq. Ma’lumki, til – bosh ziddiyati o‘zbek xalqi uchun tanish holatdir.

Volter Mey talqinida pragmatik ta’sirni kuchaytirish xodisasi kuzatilib, poetik ritm, qofiya, badiiylikka alohida e’tibor qaratiladi vap badiiylik kuchaytiriladi. Tarjimada “qara bash” - “his hair may be dark” metonimiya shaklida bo‘lib, “inson” ma’nosidan chiqib, tashqi belgiga (soch) siljiydi. Bu obrazni inglizcha o‘quvchiga mantiqiy tushunish imkonini beradi. Ammo bu asliyatdagi “qara bash”ning umumlashgan ijtimoiy-semantik mazmun-ma’nosini to‘liq ochib bermaydi. Tarjimon “They will cut your offending tongue out” orqali asliyatda ochiq aytilmagan jazoni kiritadi. Bu – amlifikatsiya/eksplikatsiya hodisasi bo‘lib, o‘quvchiga ta’sirni oshiradi, asliyatning ma’no chegarasini kengaytiradi. Ta’kidlash joizki, V.Mey funksional ekvivalentlik (ta’sirni saqlash) yo‘lidan borib, mazmunga qo‘shimcha yuk kiritgan.

Robert Denkof tarjima jarayonida metaforani saqlash va “chetlatib ko‘rsatish” va manba obrazini saqlashga intiladi. “Red tongue / black head” strukturasi kalkaga yaqin bo‘lib, “devoured” fe’li asliyatdagi “yeydi”ning kuchini yaqqol ko‘rsatib beradi. Biroq, “before the tongue the head’s coward” sintaksisi ingliz tilli o‘quvchiga anchayin notanish bo‘lib, bu holat tarjimada forenizatsiyaning tabiiy oqibati sanaladi. Natijada o‘quvchi matnning “boshqa madaniyatdan kelganini” his

qiladi. Shu bilan birga, mutarjim asliyatdagi didaktik falsafani “til oldida bosh ojiz” shaklidagi purma’no aforizmga aylantiradi. Ko‘rinadiki, R.Denkof talqinida asliyatga semantik yaqinlik, qadimgi turkiy xalqlar madaniy xususiyatlarini saqlash ustuvorlik qiladi va bu o‘z navbatida tarjimonning asliyat badiyatiga sodiq qola olganligini namoyon etadi.

R.Denkoff “Tiling tegme künde başıngı yanur”ni “Til oldida bosh qo‘rqoqdir” tarzida o‘giran. Tarjimada asliyatdagi aforizm mazmuni o‘z ifodasini topmagandek. Ingliz tilli kitobxon uchun uni tushunish qiyin. Tarjimada bosh birdan qo‘rqoq a’zoga aylanib qolgan.

Matn mazmunini aniqroq tasavvur etish uchun “XIII asr turkiy til etimologik lug‘ati”ga murojaat qilamiz. Muallif G.Klauson lug‘at tuzishda foydalanilgan manbalar va ulardagi so‘zlarning tahlili yuzasidan shunday deydi: “Ikkinchi asosiy matn turkiy xalqlarning eng qadimgi obidasi, XI asrning uchinchi choragida yozilgan Yusuf Xos Hojib Bolasog‘uniyning “Qutadg‘u bilig” asaridir. Men keltirgan parchalar R.R.Aratning 1947 yil nashr etilgan tanqidiy matnidan olingan. Ayrim ikkilangan hollarda asarning uchta qo‘lyozmasi faksimilelariga murojaat qildim”. (G.Clauson, 1972, 18)Mazkur lug‘atda yuqoridagi misra aynan keltirilgan va shu o‘rinda faksimilega murojaat qilinganiga ham ishora bor: Uan – KB (keep a guard on your tongue – Tilingga qo‘riqchi qo‘y) tiling tegme künde başıngı yanur – your tongue threatens your head (i.e. life) every day 967 – Tiling har kuni boshingga (ya’ni hayotingga) tahdid soladi (967). Qutb facsimile 52 r. 9 (“Qutadg‘u bilig” faksimil). (G.Clauson, 1972, 942)

Qadimgi turkiy lug‘atda ham shu ma’no qayd etilgan: Jan – III угрожать (tahdid solmoq), pugat (qo‘rqitmoq).

Baytning turkcha tarjiması: Başını kurtarmaq istersen, dilini gözet: dilin her gün senin başını tehdit eder (R.Arat, 1994, 80) – Boshingni asrashni xohlasang tilingni saqla, tiling har kuni boshingga tahdid qiladi).

Aforizm ma’nosini tarjimada aks ettirishda R.R.Arat ham muvaffaqiyatga erishgan deyish mumkin. Fikrimizcha, baytning oxirgi misrasidagi yeyur

transkripsiyada yanur tarzida berilib, misra o‘zbekcha tabdilda “Bu til har kuni boshingga tahdid qiladi” shaklida berilsa, Yusuf Xos Hojib aforizmlarining badiiy qimmatini va teran mazmuni zamonaviy o‘zbek o‘quvchisiga yanada jozibaliroq yetib borardi. Tarjima jarayonida R.Denkoff “XIII asr turkiy til etimologik lug‘ati” dan keng foydalangan bo‘lsa-da, ayni bayt tarjimasida unga murojaat qilmagan ko‘rinadi.

Tarjima talqinlari “frazologik ekvivalent”ka erishish borasida xulosaga kelish mumkinki, Q.Karimov asliyat ruhi va badiyatini saqlab qolishga erishada.

V.Mey tarjimada inglizcha tayyor idiomatik birlikni qo‘llaydi va asliyatga yaqinlashadi, “qara bash” metonimiyasini o‘zgartiradi va matnga qo‘shimcha hukm – jazo ssenariysini kiritadi.

“Shakliy imkoniyat mazmuni o‘quvchiga yetkazishda katta vositadir. She’r haqida gapirganda, mazmun bilan shaklni bir-biridan ajratib ko‘rsatishning o‘zi joiz emas. Shakl va mazmun yaxlitlikda, dialektik birlikda mavjud hodisalardir”. (G‘Salomov, 1979, 72) Modomiki, she’riy tarjimaga shunday talablar qo‘yilar ekan, mutarjim shakl va mazmun birligiga doimo e’tibor qaratishi lozim. Zero, tarjima asari shakldor baytlar to‘plami emas, balki o‘zga til vakillariga o‘z tillarida estetik zavq beruvchi asar bo‘lishi lozim.

Denkoffda asliyatga sodiqdlik ancha kuchli va “hold your tongue” kabi “tavsiya”si bilan xaqiqiy ma’noni tarjimada ham ochib beradi.

XULOSA

Aytish mumkinki, asliyatning obrazli tuzilmasini saqlashda Q.Karimova va R.Denkofflarning talqinlari ustunlik qilsa, ingliz o‘quvchisiga mazmuni oson va tez tushunishda V.Meyning ustunligi seziladi. Biz tahlilga tortgan baytlarning tarjima tajribalari ko‘rsatmoqdaki, frazeologik birliklar tarjimasida asosiy muammo - “so‘zma-so‘z” emas, balki obrazli-axloqiy mexanizm (metafora + buyruq) ni ham tarjimada qayta yarata olishdir.

Yuqoridagi tahlillardan ayon bo‘ladiki, “Qutadg‘u bilig” to‘rtliklari o‘zining teran badiiyati, mukammal kompozitsiyasi va tasvirdagi semantikasi bilan alohida

ajralib turadi. Toʻrtliklar asarning asosini tashkil etuvchi masnaviyning mantiqiy davomi va ulardagi falsafiy fikrlarning isboti sifatida maydonga keladi. “Qutadgʻu bilig” toʻrtliklari oʻzlarining qofiyalanishi va mazmun qamrovi bilan ruboiyga yaqindir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. - London: Routledge, 1992.
2. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. - London: Prentice Hall, 1988.
4. Nida, E. A. Toward a Science of Translating. - Leiden: Brill, 1964.
5. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. - London: Routledge, 1995.
6. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-thirteen Century Turkish. – London: Oxford University Press, 1972. Preface. –P.17
7. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи ва тарж.: Қ. Каримов. - Тошкент: Гафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1971.
8. Yūsuf Khāss Hājib. Wisdom of Royal Glory (KutadguBilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes. Trans. and notes by Robert Dankoff. - Chicago: University of Chicago Press, 1983.
9. Yusuf Balasagunii. Beneficent Knowledge. Translated into English by Walter May. Moscow–Bishkek, 1998.
10. Қ. Каримовнинг ўзбекча табдили ва Р. Денкофф ҳамда В. Мей таржималари: Сидиков К. «Қутадғу билиг» тўртликларининг инглизча бадиий таржима хусусиятлари. — Тошкент: «BAYOZ», 2014. — Б. 71 (Денкофф), Б. 73 (Мей).
11. Қ. Сидиков, “Қутадғу билиг” тўртликларининг инглизча бадиий таржима

- хусусиятлари. — Тошкент: “BAYOZ”, 2014. — 82 Б.
12. Arat R.R. *Kutadgu Bilig II Çeviri*.— Ankara: Turk Tarih Kurumu Basımevi, 1994. 6- baskı. – S.80.
13. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 57.

REFERENCE

1. Arat, R. R. (1994). *Kutadgu Bilig II: Translation* (6th ed.). Turkish Historical Society Press.
2. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge.
3. Clauson, G. (1972). *An etymological dictionary of pre-thirteenth-century Turkish*. Oxford University Press.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
5. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
6. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. Brill.
7. Salomov, G., & Komilov, N. (1979). *Bridges of friendship*. Gafur Gulyam Publishing House of Literature and Art.
8. Sidiqov, K. (2014). *Features of the English literary translation of the quatrains of "Kutadgu Bilig"*. Bayoz.
9. Venuti, L. (1995). *The translator's invisibility: A history of translation*. Routledge.
10. Yusuf Balasaguni. (1998). *Beneficent knowledge* (W. May, Trans.). Moscow–Bishkek.
11. Yūsuf Khāss Hājib. (1971). *Qutadgu bilig* (Q. Karimov, Ed. & Trans.). Gafur Gulyam Publishing House of Fiction.
12. Yūsuf Khāss Hājib. (1983). *Wisdom of royal glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic mirror for princes* (R. Dankoff, Trans.). University of Chicago Press